

SHARTNOMA
faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha № _____

Toshkent sh.
y.

“ _____ ” _____ 202_

ATB “Tenge Bank” bundan keyin «Moliyaviy agent» deb yuritiluvchi, Boshqaruv Raisining Birinchi o'rinbosari Xakimov Sh.X. timsolida, 09.07.2024 y. dagi № 01-04-3475-sonli Ishonchnoma asosida ish yurituvchi, bir tomondan, va MChJ“ _____ ”, bundan keyin «Mijoz» deb yuritiluvchi, Ustav asosida ish yurituvchi _____ timsolida, ikkinchi tomondan, bundan keyin birgalikda Tomonlar deb yuritiluvchilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1 Mijoz va Qarzdor o'rtasidagi “ _____ ” _____ 2024y. dagi № _____ -sonli shartnomaga muvofiq, Qarzdor tomonidan akseptlangan to'lovni talab qilish huquqi Moliyaviy agentga (Qarzdorni yozma xabardor qilish yo'li bilan) beriladi.
- 1.2 Talab qilish huquqi o'tishi natijasida Moliyaviy agent kreditor sifatida Mijozning o'rnini egallaydi va ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan shartnoma bo'yicha Qarzdordan to'lovlarni talab qilishga to'liq huquqqa ega bo'ladi.
- 1.3 Moliyaviy agentga to'lovlarni talab qilish huquqining tafsilotlari:
 - 1.3.1 Berib yuborilgan to'lov talabining (qarzning) umumiy summasi _____ so'm.
 - 1.3.2 Qarzdor tashkilotning nomi _____
 - 1.3.3 Qarzdorning yuridik manzili _____
 - 1.3.4 Qarzdorning bank rekvizitlari / to'lov tafsilotlari: _____

- 1.3.5 Qarzni so'ndirish muddati _____
- 1.4 Ushbu Shartnoma tuzilgan paytda Mijoz ushbu shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarni to'liq bajargan.
- 1.5 Mijoz va Qarzdor o'rtasida to'lovni talab qilish huquqini uchinchi shaxslarga berishni taqiqlovchi yoki cheklovchi kelishuv mavjud emas.
- 1.6 Ushbu Shartnoma tuzilgan paytda va uning butun amal qilish muddati davomida Mijoz Qarzdorning Mijozga nisbatan har qanday da'volarini shunday tartibda hal qilishi kerakki, Qarzdor avval yuzaga kelgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqib Mijozga nisbatan o'z pul talablarini hisobga o'tkazishni talab qila olmasligi va o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlamasligi lozim.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

- 2.1 Ushbu Shartnomani tuzishda Mijoz Moliyaviy agentga o'zi, shuningdek Qarzdor tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga, shuningdek xalqaro va davlat iqtisodiy sanksiyalariga to'liq rioya etilishini kafolatlashga majbur. Ushbu majburiyat buzilganligi haqida asosli shubhalar yuzaga kelgan taqdirda, Moliyaviy agent operatsiyalarni to'xtatib turishga va (yoki) Mijozni 3 (uch) ish kuni oldin ogohlantirgan holda Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.
- 2.2 Mijoz Qarzdorni Moliyaviy agentga to'lovlarni talab qilish huquqlari berib yuborilganligi haqida ushbu shartnoma imzolanganidan keyin 1 (bir) ish kuni ichida, bajarilishi lozim bo'lgan to'lov talablarini va Moliyaviy agent to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda xabardor qilishi shart.
- 2.3 Moliyaviy agent oqilona muddatlarda Qarzdorga to'lovlarni talab qilish huquqlari berib yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.
- 2.4 Qarzdorning Moliyaviy agent oldidagi majburiyatlarini bajarishi uni Mijoz oldidagi majburiyatlardan ozod etadi.

2.5 Mijoz tomonidan Moliyaviy agentga beriladigan majburiyatlarni Qarzdor bajarmagan taqdirda, lozim darajada to'lash bo'yicha majburiyatlarni Mijoz bajarishi shart.

3. SHARTNOMANI BAJARISH TARTIBI

3.1 Ushbu shartnomani tuzishda Mijoz olingan huquqni amalga oshirish uchun Moliyaviy agentga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- Qarzdor va Mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma.
- Qarzdor va Mijoz o'rtasida imzolangan solishtirma dalolatnomasi.
- Hisob-fakturalar.
- Zarur bo'lganda, boshqa hujjatlar.

3.2 Moliyaviy agent va Qarzdor o'rtasidagi ushbu Shartnoma bo'yicha hisob-kitoblar ushbu Bitimning 1.1-bandida ko'rsatilgan Shartnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4. HISOB-KITOB TARTIBI.

4.1 Moliyaviy agent tomonidan Mijozga har bir berib yuborilgan talab uchun to'lov ikki to'lov bilan amalga oshiriladi: birinchi va yakuniy to'lov.

4.2 Berib yuborilgan talab summasining 90% dan ko'p bo'lmagan miqdordagi birinchi to'lovni Moliyaviy agent quyidagi hujjatlarni akseptlagan kundan boshlab 3 (uch) ish kundan kechiktirmay Mijozning bank hisobvarog'iga o'tkazadi:

- Ushbu Shartnomaga 1-ilovada keltirilgan namuna bo'yicha xabardor qilish varaqasini.
- Ushbu Shartnomaga 2-ilovada keltirilgan namuna bo'yicha arizani.

4.3 Yakuniy to'lov Moliyaviy agent tomonidan Qarzdordan berib yuborilgan pul talabining to'liq to'lovi kelib tushgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida, birinchi to'lov summasi va diskont ko'rinishidagi mukofotni, shuningdek Qarzdor pul talablarini to'lash majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganda yuzaga keladigan neustoyka (jarimalar)ni chegirib tashlagan holda Mijozning bank hisobvarog'iga o'tkaziladi.

4.4 Faktoring bo'yicha diskont miqdori (hujjatlarni qayta ishlash uchun komissiyani hisobga olgan holda) Moliyaviy agentning belgilangan tariflariga muvofiq belgilanadi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

5.1 Mijoz ushbu shartnomaning predmeti bo'lgan to'lovlarni talab qilish huquqining haqiqiyliги uchun Moliyaviy agent oldida javobgar bo'ladi.

5.2 Mijoz Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi uchun Qarzdor bilan birgalikda Moliyaviy agent oldida to'liq solidar javobgarlikni zimmasiga oladi.

5.3 Moliyaviy agent Mijoz va Qarzdor o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.4 Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan Tomon boshqa tomonga shunday bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararni qoplashga majbur. Moliyaviy agentning ushbu Shartnomaning 2.1-bandiga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan holatlari bundan mustasno.

5.5 Pul talabining haqiqiy emasligi sababli ushbu Shartnomaning 1.3.1-bandida ko'rsatilgan miqdordagi pul mablag'larini olish imkoni bo'lmagan taqdirda, Moliyaviy agent Mijozdan haqiqiy bo'lmagan pul talabi summasidan har bir kechiktirilgan taqvim kuni uchun, Mijoz moliyaviy talabni berib yuborish evaziga olingan pul mablag'larini to'laguniga qadar 0,11% miqdorida jarima sanksiyalarini undirib olishga haqli.

5.6 Agar talab bo'yicha to'lovlar (shu jumladan jarimalar) Qarzdor tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshirilmasa, Mijoz Qarzdor o'rniga to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini so'zsiz oladi. Bunda Moliyaviy agent talab bo'yicha to'lanmagan summalarni (shu jumladan to'lanmagan jarimalarni) Mijozning Moliyaviy agentda va boshqa banklarda ochilgan barcha bank hisobvaraqlaridan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, Mijozning aksepti talab etilmaydigan to'lov hujjatlari asosida to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan akseptsiz tartibda undirib olishga haqli bo'lib, Mijoz bunga o'zining so'zsiz va qaytarib olib bo'lmaydigan roziligini bildiradi.

5.7 Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq hisoblangan jarimani to'lash Tomonlarni ushbu Shartnoma bo'yicha olingan majburiyatlarni lozim darajada bajarishdan ozod etmaydi.

5.8

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 6.1 Ushbu Shartnoma har ikki tomon tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar amal qiladi.
- 6.2 Ushbu Shartnomaga barcha o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar faqat yozma shaklda amalga oshirilgan, vakolatli vakillar tomonidan imzolangan va har ikki Tomonning muhri bilan tasdiqlangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.
- 6.3 Barcha o'zgartirishlar, qo'shimchalar va ilovalar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 6.4 Qarzdor tomonidan akseptdan qisman yoki to'liq bosh tortilgan, Shartnoma shartlariga rozi bo'lmagan yoki ularga e'tiroz bildirilgan taqdirda, Moliyaviy agent bu haqda Mijozni xabardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 7.1 Ushbu Shartnomani bajarish jarayonida Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.
- 7.2 Tomonlar o'zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda, yuzaga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.
- 7.3 Da'voni olgan Tomon uni ko'rib chiqishi va olingan kundan boshlab 10 (o'n) taqvim kuni ichida yo da'voni qondirishi, yoki asoslantirilgan rad javobini berishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda da'voga javob berilmasligi da'voni qondirishdan bosh tortish deb hisoblanadi.

8. MAXFIYLIK.

- 8.1 Har bir Tomon boshqa Tomon tomonidan taqdim etiladigan tijoriy va texnik hujjatlarni, shuningdek har qanday ma'lumotni, lekin shu bilan cheklanmagan holda, ma'lumotlar, faktlarni (bundan keyin «Maxfiy Axborot» deb yuritiluvchi) ushbu boshqa Tomonning mutlaq mulki sifatida ko'rib chiqishi lozim. Bunday axborotni oluvchi Tomon (i) Maxfiy Axborotdan faqat ushbu shartnomani bajarish maqsadida va uning shartlariga muvofiq foydalanish, va (ii) bunday Maxfiy Axborotni ushbu axborot egasi bo'lgan Tomonning oldindan yozma roziligisiz har qanday uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik, shuningdek oshkor qilishga ruxsat bermaslik va ko'maklashmaslik, (iii) Maxfiy Axborotni faqat ushbu Maxfiy Axborotni faqat shartnomani bajarish maqsadida olishga muhtoj bo'lgan o'z xodimlariga oshkor qilish majburiyatini oladi.
- 8.2 Maxfiy Axborot yozma, og'zaki yoki vizual shaklda taqdim etilishi mumkin, biroq har qanday og'zaki yoki vizual Maxfiy Axborot uni oshkor qiluvchi Tomon tomonidan yozma shaklda tasdiqlanishi va ushbu axborotni oluvchi Tomonga og'zaki yoki vizual tarzda oshkor etilgan paytdan boshlab 15 kun ichida topshirilishi sharti bilan.
- 8.3 Barcha Maxfiy Axborot ushbu axborotning maxfiy xususiyatini ta'kidlash uchun «Maxfiy» belgisiga yoki boshqa har qanday aniq belgiga ega bo'lishi lozim.
- 8.4 Axborotni oluvchi Tomon, agar ushbu Tomon quyidagilarni isbotlay olsa, axborotni Maxfiy Axborot sifatida ko'rib chiqishga majbur emas:
 - axborot oshkor qiluvchi Tomon tomonidan oshkor etilgunga qadar oluvchi Tomonning qonuniy mulkida bo'lgan va maxfiylikni saqlash bo'yicha biron-bir majburiyatga bog'liq bo'lmagan bo'lsa; yoki
 - axborot oluvchi Tomonga oshkor etilgan paytda umumfoydalanishda bo'lsa yoki keyinchalik umumfoydalanishga aylansa, lekin oluvchi Tomonning ushbu shartnoma shartlarini buzgan holdagi biron-bir harakati yoki harakatsizligi natijasida bo'lmasa; yoki
 - ushbu shartnoma kuchga kirgandan keyin istalgan paytda oluvchi Tomonga, ushbu yerda ko'rib chiqilayotgan axborotga nisbatan oshkor qiluvchi Tomon oldida maxfiylik yoki sirlilik shartlari ostida bo'lmagan uchinchi shaxs tomonidan oshkor etilsa; yoki
 - Maxfiy Axborotga ruxsati bo'lmagan oluvchi Tomon xodimlari tomonidan ishlab chiqilsa.
- 8.5 Tomonlar Tomonlardan birortasi tomonidan Maxfiy axborotni ruxsatsiz oshkor qilish yoki undan foydalanish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlarning bajarilmasligi oshkor qiluvchi Tomonga qoplab bo'lmaydigan yo'qotish va zararlar keltirishi mumkinligi bilan rozidirlar. Tomonlarning har biri Maxfiy Axborot qadriyat ekanligini va zararlar oluvchi Tomon tomonidan ushbu shartnomaning har qanday buzilishidan himoyalanişning lozim darajadagi sud vositasi bo'la olmasligini tan oladi. Shunga ko'ra, Tomonlar oshkor qiluvchi Tomon axborotni har qanday ruxsatsiz oshkor qilish yoki undan foydalanishning oldini olish uchun tegishli himoya vositalariga ega bo'lishiga rozidirlar. Ushbu sud himoyasi vositalari oshkor

qiluvchi Tomon ushbu shartnomaga yoki qonunga muvofiq foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday huquq va himoya vositalariga nisbatan yakuniy hisoblanmaydi.

- 8.6 Ushbu shartnomaning bekor qilinishi yoki amal qilish muddati tugaganidan qat'i nazar, ushbu moddaning qoidalarini ushbu shartnoma bekor qilingan yoki amal qilish muddati tugaganidan keyin uch yil davomida amalda qoladi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

- 9.1 Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari, vositachilari va (yoki) boshqa vakillari quyidagilarga majbur:
- biron-bir shaxsning harakatlariga va (yoki) qarorlariga ta'sir ko'rsatish maqsadida, biron-bir noqonuniy ustunliklar yoki boshqa noqonuniy manfaatlar olish uchun, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, har qanday shaxsga biron-bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaslik, taklif qilmaslik va va'da bermaslik, shuningdek ularni to'lashga ruxsat bermaslik;
 - qonun hujjatlari bilan pora berish/vositachilik qilish/pora olish, tijoriy pora, mansab vakolatlari yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish deb tasniflanadigan harakatlarni, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlarni, ham Shartnoma tomonlari o'rtasidagi munosabatlarda, ham uchinchi shaxslar va davlat organlari bilan munosabatlarda amalga oshirmaslik.
- 9.2 Ushbu Shartnomaning har bir tomoni boshqa tomonni (shuningdek uning xodimlari va boshqa vakillarini) biron-bir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'larini berish, sovg'alar, ular manziliga tekinga ish (xizmat) bajarish va boshqa tomonning xodimlari va (yoki) vakillarini ma'lum bir qaramlikka soluvchi hamda ularning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga biron-bir harakatlarni bajarishini ta'minlashga qaratilgan boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan voz kechadi.
- 9.3 Tomonda korrupsiyaviy yoki firibgarlik harakatlari sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin degan shubhalar yuzaga kelgan taqdirda, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.
- 9.4 Xabardor qilingan tomon korrupsiyaviy harakat sodir etilganligi fakti tasdiqlangunga yoki rad etilgunga qadar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqli.
- 9.5 Tomonlar pora berish/vositachilik qilish/pora olish, tijoriy pora, mansab vakolatlari yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilish natijasida yetkazilgan zararni, shuningdek barcha korrupsiya holatlari to'g'risida axborot bermaslik yoki boshqa Tomonga qasddan yolg'on ma'lumot berish natijasida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladilar.
- 9.6 Tomonlar ushbu Shartnoma bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish bo'yicha lozim choralarni ko'rish majburiyatini oladilar.

10. YAKUNIY QOIDALAR

- 10.1 Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada tuzilgan bo'lib, shartnomaning bir nusxasi Moliyaviy agentda, boshqasi Mijozda saqlanadi.
- 10.2 Ushbu Shartnomada va unga ilovalarda nazarda tutilmagan barcha boshqa masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.
- 10.3 Shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma shaklda rasmiylashtirilgan va har ikki Tomonning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdiridagina haqiqiy hisoblanadi.
- 10.4 Ushbu Shartnoma tuzilgandan so'ng Mijozga va (yoki) Qarzdorga nisbatan xalqaro/davlat iqtisodiy sanksiyalari qo'llanilgan taqdirda, shuningdek Mijoz va Qarzdor o'rtasidagi shartnoma predmeti bo'lgan tovar/ish/xizmatni eksport/import qilishga taqiq yoki cheklov o'rnatilgan taqdirda, Moliyaviy agent ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni to'xtatib turishga va (yoki) Mijozni 3 (uch) ish kuni oldin ogohlantirgan holda uni bir tomonlama bekor qilishga haqli.
- 10.5 Ushbu Shartnoma unda qatnashayotgan Tomonlar o'rtasidagi barcha tilga olingan masalalar yuzasidan barcha shartnomaviy shartlar va kelishuvni tashkil etadi va ifodalaydi, bunda Tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi muhokamalar, va'dalar va taqdimotlar, agar shundaylari bo'lgan bo'lsa, o'z kuchini yo'qotadi.
- 10.6 Ushbu Shartnoma pochta, elektron va boshqa aloqa vositalari orqali hujjatning ushbu Shartnoma tomonidan kelib chiqqanligini ishonchli tarzda aniqlash imkonini beruvchi tarzda hujjatlarni almashish yo'li bilan tuzilishi mumkin, bunda imzolangan hujjatlarning asl nusxalari elektron shaklda yoki faksimil nusxa taqdim etilgan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) taqvim kuni ichida majburiy tarzda topshirilishi shart. Ushbu Shartnoma nusxalarini faks yoki elektron pochta orqali almashish uni tuzilgan deb hisoblanadi.



10.7 Agar ushbu Shartnomaning biron-bir qoidasi haqiqiy bo'lmasa yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, uning qolgan qoidalarining qonuniyligi bundan yo'qolmaydi.

11.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

Moliyaviy agent ATB “Tenge Bank” Manzil: 100007, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy STIR: 207297973 MFO: 01176 H/r: _____	Boshqaruv Raisining Birinchi o'rinbosari Xakimov Sh.X. _____ m.o'.
Mijoz	 _____ m.o'.

1-ilova
Faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnomaga
№ _____ “ ” _____ 20__ y. dagi

XABARDOR QILISH VARAQASI
To'lovchini (Qarzdorni) tanishtirish
Shartnoma doirasida faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
«__» _____ 20__ yil dagi № _____

Toshkent sh.
y.

“ ” _____ 202__

Ushbu xat bilan «Tenge Bank» ATB (bundan keyin – Moliyaviy agent) Sizni xabardor qiladiki, faktoring xizmatlarini ko'rsatish munosabati bilan, _____ (Mijozning nomi ko'rsatilsin) ning Sizning



_____ (Qarzdorning nomi ko'rsatilsin) kompaniyangizga nisbatan "____" _____
202__y. dagi № _____-sonli shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqqan barcha talablari, «____» _____
20__yil dagi № _____-sonli faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnomaga muvofiq Moliyaviy agent
foydasiga berib yuborilgan.

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan, quyida ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha pul mablag'larini o'z
muddatida to'lashingizni so'raymiz.

To'lanadigan summa: 0,00 () so'm.

To'lov sanasi: __.__.2025 y.

To'lov uchun rekvizitlar: _____

Ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha qarzni to'lash Sizning kompaniyangiz uchun «____» _____ 20__yil dagi №
_____ -sonli shartnoma bo'yicha majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi hisoblanadi.

To'lovni kechiktirganlik uchun jarima: to'lanmagan to'lov summasidan har bir kechiktirilgan taqvim kuni
uchun 0,11%.

To'lov uchun asos bo'lgan hujjatlar ro'yxati:

1. _____ 202__y. dagi № _____-sonli Shartnoma, Mijoz va To'lovchi (Qarzdor) o'rtasida imzolangan;
2. Solishtirma dalolatnomasi _____ 202__y. dagi № _____, Mijoz va To'lovchi (Qarzdor) o'rtasida
imzolangan.
3. ____ dagi № ____-sonli hisob-faktura
4. ____ dagi № ____-sonli bajarilgan ishlar dalolatnomasini

Men _____ (Mijoz ko'rsatilsin) ning vakolatli vakili sifatida To'lovchi
(Qarzdor), Xabarnomani shaxsan o'qib chiqdim va uning mazmuni bilan tanishdim.

Xabarnoma sharti bilan roziman va berib yuborilgan talabning haqiqiyligini tasdiqlayman.

Belgilangan muddatda to'lovni to'liq hajmda amalga oshirish majburiyatini olaman (Qonun hujjatlarida
belgilangan tartibda mening hisobvaraqlarimdan akseptsiz hisobdan chiqarishga roziman).

Moliyaviy agent tomonidan o'z majburiyatlari, shu jumladan to'lovlarni kechiktirish buzilgan taqdirda ko'riladigan
choralarning huquqiy oqibatlarini haqida ogohlantirildim.

<p>Moliyaviy agent (Kreditor) ATB "Tenge Bank" Manzil: 100007, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy STIR: 207297973 MFO: 01176 H/r: _____</p>	<p>Boshqaruv Raisining Birinchi o'rinbosari Xakimov Sh.X.</p> <p>_____</p> <p>m.o'.</p>
<p>Mijoz</p>	

<hr/> m.o'.
To'lovchi (Qarzdor)
<hr/> m.o'.

Xabardor qilish varaqasi 3 nusxada imzolandi:

- 1-nusxa imzolanib Moliyaviy agentga topshirildi;
- 2-nusxa imzolanib Mijozga topshirildi
- 3-nusxa imzolanib To'lovchiga (Qarzdorga) topshirildi.

2-ilova
Faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnomaga
№ _____ "___" _____ 20__ y. dagi

ARIZA faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
Shartnoma doirasida «__» _____ 20__ yil dagi № _____

Toshkent sh.
y.

"___" _____ 202__

Faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha «__» _____ 202__ y. dagi № _____-sonli Shartnoma asosida, quyidagi shartlarda moliyalashtirish taqdim etishingizni so'raymiz:

Faktoring summasi: 0,00 () so'm:

Faktoring muddati: 0 () taqvim kuni.



Faktoring boshlanish sanasi: __. __.2025 y.

Faktoring tugash sanasi (to'lov sanasi): __. __.2025 y.

Diskont stavkasi va summasi: 0%, 0,00 so'm

Diskontni to'lash sanasi: __. __.2025 y.

Faktoringni so'ndirishni kechiktirganlik uchun jarima: to'lanmagan to'lov summasidan har bir kechiktirilgan taqvim kuni uchun 0,11%.

Faktoring ta'minoti (quyida sanab o'tilgan hujjatlar asosida yuzaga keluvchi debitorlik qarzi):

1. _____202_y. dagi № _____-sonli Shartnoma, Mijoz va To'lovchi (Qarzdor) o'rtasida imzolangan;
2. Solishtirma dalolatnomasi _____202_y. dagi № _____, Mijoz va To'lovchi (Qarzdor) o'rtasida imzolangan.
3. _____dagi № _____-sonli hisob-faktura
4. _____dagi № _____-sonli bajarilgan ishlar dalolatnomasini
5. _____ga tegishli ko'chmas mulk / ko'char mulk / transport vositasi
_____garovi.

Men _____ (Mijoz ko'rsatilsin) ning vakolatli vakili sifatida _____ (Mijoz ko'rsatilsin), faktoring xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnomaning har bir bandini shaxsan o'qib chiqdim va uning mazmuni bilan tanishdim.

Shartnoma Tomonlarning yuridik tengligi, ezgu niyati va o'zaro manfaatdorligidan kelib chiqib to'g'ri tuzilganligini tasdiqlayman.

Qarzdor tomonidan majburiyatlar, shu jumladan to'lovlarni kechiktirish buzilgan taqdirda Moliyaviy agent tomonidan ko'riladigan choralarning huquqiy oqibatlari haqida ogohlantirildim.

Qarzdor o'z majburiyatlarini, shu jumladan to'lovlarni bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan, va/yoki to'lovni to'liq bo'lmagan hajmda amalga oshirgan taqdirda, Qarzdor o'rniga to'lovni mustaqil ravishda amalga oshirish majburiyatini olaman. (Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mening hisobvaraqlarimdan akseptsiz hisobdan chiqarishga roziman).

Moliyaviy agent (Kreditor) ATB "Tenge Bank" Manzil: 100007, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 66-uy STIR: 207297973 MFO: 01176 H/r: _____	Boshqaruv Raisining Birinchi o'rinbosari Xakimov Sh.X. _____ m.o'. _____ m.o'.
Mijoz	_____ m.o'.